

Yaponiya PZR testi va emlanganlik to'g'risidagi cheklovlarni bekor qildi

2023 1 May

2023-yilning 29-apreldidan boshlab, Yaponiyaga kirishda yo'lovchilardan PZR test hamda to'liq emalanganlik haqidagi sertifikatni taqdim etish talab etilmaydi.

Bugungi kunga qadar Uzbekistan Airways Toshkent-Tokio-Toshkent yo'nalishida haftalik muntazam aviaqatnovlarni Narita aeroportiga amalga oshirmoqda.

Ushbu va boshqa yo'nalishlar uchun aviachiptalarni rasmiy veb-saytda, UzAirways ilovasi orqali, Uzbekistan Airways Sales filialida, shuningdek, aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.